

JADID TEATRLARI

Mirsoliyeva Durdona

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat

Instituti

Farg'ona mintaqaviy filiali

Qo'g'irchoq teatr aktyorligi

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mamatqulov Bekzod

Annotatsiya: *Maqolada buyuk o'tmishga ega bo'lgan O'zbek teatrining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Jadid teatrlari va ularning asoschilari haqida so'z yuritiladi. Dastlabki qo'yilgan spektakl va aktyorlar, dramaturglar haqida so'zlanadi.*

Kalit so'zlar: *o'tmish, qanday, qadam, so'ngra, ko'nikma, yutuq, kelajak, katta, tarix, teatr, beqiyos, mashhur, padarkush, yaqqol, spektakl, o'zbek, yangi, namoyondalari, misol, xizmat, hudud, Farg'ona, Andijon, Xiva, tashabbusi, truppa, ma'naviy, moddiy.*

Kimdir nimagadir, deylik, biron bir yutuqqa erishishi uchun ham o'sha kimdirga yana bir kimdir turtki berish vazifasini o'tashi kerak. Ya'ni, bir ko'makchi lozim albatta. Har qanday soha ustozsiz va o'rganish, izlanish va ko'nikmasiz bo'lmaydi. Bir bor ortga qarab turib, so'ngra oldinga qarab qadam bosiladi har qanday sohada. Ya'ni, o'sha sohaning o'tmishi qanday, qanday yutuqlari va qanday kamchiliklari bo'lgan va albatta kelajakda aynan shu sohada qanday yangilik qilish lozim. Kelajak uchun ustivor vazifalar aynan o'tmishga bir bor boqib olgandan so'ng oldinga qo'yiladi.

O'zbek teatrining rivojlanishida juda ham katta hissa qo'sha olgan va juda ham katta tarix qoldirib ketgan Jadid teatrlarining xizmatlari hozirgi kunga kelib juda ham beqiyosdir.

Jadid teatrlari XIX-XX asrlarda O'zbekiston hududida paydo bo'lgan, bu teatrlarning O'zbek milliy teatrlarining ko'p jihatidan yuksalishida katta ahamiyatga ega. 1911-yil Turkiston hududida ilk drama asarlar sahnalashtirilgan. Misol qilib olganda Behbudiyning „Padarkush“ spektakli, „Mahramlar“ nomi bilan mashhur bo'lgan A.Samadovning spektakllarini e'tiborga loyiq asarlar sifatida olish mumkin. Bular ichida "Padarkush" spektaklini yaqqol ajratib olsa bo'ladi, chunki o'sha davrda uning g'oyaviy ahamiyati juda katta bo'lgan. Samarqand shahrida birinchilardan bo'lib yangi O'zbek jadid teatri ish boshladi, uni ochilishida va qurilishida Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari juda katta bo'lgan.

Bu teatrda birinchilardan bo'lib uning mashhur „ Padarkush“ pyesasi namoyish etilgan. Jadidchilar harakatida yana ko'plab atoqli namoyondalari va ma'rifatparvarlari bu kabi jadid teatrlarini vujudga kelishida juda katta xizmat qilganlar. Misol qilib olganda Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziyning xizmatlari juda ham katta bo'lgan.

Toshkent shahrida birinchi jadid teatri 1914-yilda o'z ishini boshlagan. Bu teatrning ochilishida Abdulla Avloniyning xizmatlari juda katta. U bu teatrni „Turon teatri“ deb nomlagan. Bu teatrda ham birinchi spektakl „Padakush“ piyeasasi hisoblanadi. Shu jumladan Turon teatri Turkiston bo'ylab o'zlarining gastrol safarlarini o'tkazgan. Uning 1915-yildagi gastrol safari juda ham muvaffaqiyatli chiqadi.

Jadidchilarning yana bir yirik namoyandasi hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining havoskorlar teatrini 1916-yilda Qo'qon shahrida tuzadi. O'zbek teatrini yuksalishida katta ahamiyatga ega bo'lgan Hamzaning „Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari“ pyesasi bo'lgan. Bu teatrda ushbu asar ilk bor 1917-yilda sahnalashtirilgan. Shunday qilib jadid teatrlari xalq orasida mashhur bo'lgan. Toshkentdagi hozirgi Milliy teatr tashkilotchilaridan biri bo'lgan Mannon Uyg'ur va O'zbek jadid teatrining ilk ayol aktrisasi Masuma Qoriyeva o'z ish faoliyatini boshladilar. Turkistonning boshqa hududlarida Farg'onada Andijonda va Xivada yana shunga o'xshash teatrlar ochildi. Mannon Uyg'ur tashabbusi bilan Buxoro shahrida yana bir teatr ochildi. Bu teatrlarda xalqning ko'ngliga yaqin ahloqiy va ijtimoiy jihatlariga aloqador mavzularda sahna ko'rinishlar ko'rsatildi. Bu sahna ko'rinishlarda zulmga qarshi kurash, odamiylik kabi insoniy hislatlar ko'rsatildi. Shu tariqa jadidlar tomonidan birinchilardan bo'lib tashkil etilgan jadid teatrlari O'zbek milliy teatrini vujudga kelishiga asos bo'ldi.

"Turon" — teatr trupпасi. Jadidlarning 1913-yil Toshkent shahrida ochilgan birinchi teatr trupпасi. Truppaning badiiy rahbari — Abdulla Avloniy, ma'naviy va moddiy homiysi Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa Toshkentning mo'tabar kishilari bo'lgan. Nizomiddin Xo'jayev, Badriddin A'lamov, Shokirjon Rahimiy, Muhammadjonqori Poshshaxo'jayev, Fuzail Jonboyev, Hasanqori, Same'qori Ziyoboyev, Quدراتilla Yunusiy va boshqa, 1916-yildan Mannon Uyg'ur, G'ulom Zafariy, Sulaymon Xo'jayev kabilar truppaning asosiy kuchlari hisoblangan. Truppa o'z faoliyatini 1914-yil 27 fevralda Toshkentdagi "Kolizey" teatri binosi (2000 tomoshabinli)da "Padarkush" (M. Behbudiy) spektakli bilan boshlagan. Bosh rollarni Abdulla Avloniy, S. Ziyoboyev, M. Poshshaxo'jayev, B. A'lamovlar ijro etganlar. Spektaklni ozarbayjonlik aktyor va rejissyor Aliasqar Asqarov qo'ygan. 1915-yil shu spektakl N. Xo'jayev tomonidan qayta sahnalashtirilgan. Ketma-ket N. Quدراتillaning "To'y", A. Krdiryning "Baxtsiz kuyov", A. Avloniyning "Advokatlik osonmi?" kabi asarlari sahnalashtirilgan. Ozarbayjon aktyori va rejissyori Ruhillo Sidki 1914—16 yillar Toshkentga ijodiy safari davomida "T." teatri a'zolari o'rtasida musiqali drama janriga qiziqish uygotgan. Ozarbayjonlarning "Layli va Majnun" spektaklida "T." trupпасi a'zolari ham birga rol uynaganlar. Teatr muhim mavzu va janr doirasi asosida keng repertuar yaratish imkoniyatiga, Toshkentning eski va yangi shahar qismida o'zining qishlik va yozlik binosiga ega teatr jamoasi darajasiga ko'tarilgan. "Pinak" (A. Avloniy), "Mazluma xotin" (X. Muin), "O'liklar" (M. Qulizoda) kabi spektakllar bilan o'z repertuarini boyitgan. 1917-yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng "T." teatri hukumat ixtiyoriga olinib, unga davlat teatri maqomi berilgan. Turli davrda turli nomlar bilan yuritilgan. Mannon Uyg'ur teatrning yetakchisi, badiiy rahbari bo'lgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vikipediya
2. O'zbekiston teatri tarixi
3. Yuz.uz sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Qomus.info sayti
6. Ziyouz.com sayti